

**Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Karyera markazi faoliyati
to'g'risida**

MA'LUMOT

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi "Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-117-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyati Denov tumani "Istiqbol" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talabalar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning bandligini ta'minlash hamda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy Karyera markazi binosi barpo etildi.

Mazkur inshoot 2024 yilning to'rtinchi choragida "Boysun Sabrina Fayz" MChJ tomonidan qurib bitkazilib, 2025 yilning birinchi choragida foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda Karyera markazi to'liq faoliyat yuritib, talabalarni kasbga yo'naltirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim o'rin egallamoqda. Karyera markazida:


- Mas'ul xodimlar uchun zamonaviy ish xonalari tashkil etilgan;
- talabalar uchun amaliy faoliyatga yo'naltirilgan quyidagi sohalar yo'lga qo'yilgan:
 - tikuvchilik va dizayn yo'nalishi;
 - o'g'il va qiz bolalar uchun go'zallik industriyasi xizmatlari;
 - konditerlik va shirinliklar tayyorlash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
 - xorijiy tillarni o'rganish kurslari.

Markazda ta'lim jarayoni "ustoz-shogird" an'analari asosida tashkil etilgan bo'lib, bu yondashuv talabalarning amaliy tajribasini boyitish, ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlash hamda kelgusida mustaqil kasbiy faoliyat yuritishlariga mustahkam zamin yaratadi.

Shu tariqa, Karyera markazi institut talabalarining intellektual salohiyati va kasbiy mahoratlarini rivojlantirishda muhim innovatsion platforma sifatida xizmat qilmoqda.



O'quv ishlari bo'yicha prorektor



U.Bo'tayev